

OILANING BOLALAR PSIXOLOGIK RIVOJLANISHIDAGI O'RNI

Tosheva Shahnozabonu Murodullo qizi

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada oilaviy muhitning bolalar psixologik rivojlanishiga ta'siri tahlil qilinadi. Bolaning emotsional holati, o'ziga bo'lgan ishonchi va shaxsiy rivojida oila muhitining roli yoritilgan. Ota - ona va bola o'rtasidagi muloqot sifati, hissiy va psixologik qo'llab - quvvatlash hamda psixologik xavfsizlik kabi omillarning bolaning ruhiy salomatligiga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, bu maqolada, zamonaviy oilalarda uchrayotgan psixologik muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari ko'rsatilgan. Mazkur tadqiqotda bolalarni sog'lom fikrlashiga hamda psixologik sog'lom rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi bir qancha psixologik muammolar va ularning yechimlari tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Emotsional qo'llab-quvvatlash, stress, ijtimoiy muhit, muloqot ko'nikmalari, ijtimoiy xulq-atvor, shaxsiy barqarorlik, emotsional aloqa, kognitiv rivojlanish.*

KIRISH

Oila - inson hayotining rivojlanishiga eng asosiy ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy me'zondir. Oila muhitida bola o'zining psixologik holatlarini shakllantiradi. Bola bu davrda dunyoni anglaydi, o'zini taniy boshlaydi, psixologik, ijtimoiy rivojlanishda ham bir qancha o'zgarishlarni boshdan kechiradi. Oiladagi psixologik muhit bolaning ruhiy sog'lomligi, boshqalar bilan muloqot qilishi, o'ziga bo'lgan ishonchi va uning kelajakdagi ijtimoiy muvaffaqiyati uchun asosiy omillardan hisoblanadi. Shu jumladan, bolalarning psixologik rivojlanishida oilaning o'rni juda katta rol tutadi. Shu boisdan, oiladagi mavjud muammolar va ularning yechimlari aniqlanishi dolzarbdir.

Ayrim oilalarda farzand uchun e'tibor, sevgi va hissiy qo'llab-quvvatlov bo'lsa, ayrimlarda esa mutlaqo buning aksidir. Bu farqlar esa farzand xulqi va psixikasida bir qancha tafovutlarni yaqqol aks ettiradi. Farzand yetuk shaxs bo'lib rivojlanishida, ota-onaning bir-biriga bo'lgan hurmati va o'zaro muomalasi farzandni yoki baxtli qiladi yoki aksincha baxtsiz. Farzand dunyoni ota-onaning ko'zi bilan ko'radi. Oila - bolaning birinchi maktabi, birinchi xavfsiz hududi. Undagi mehr, hurmat, barqarorlik va muloqot sifati bola ruhiyatiga poydevor bo'ladi. Tarbiyada izchillik bo'lmasa, bola kimga ishonishni, qanday munosabat to'g'ri ekanligini anglamay qoladi. Ammo mehrga boy, sokin, psixologik xavfsizlik yaratadigan muhitda ulg'aygan bola o'ziga ishongan, barqaror va emotsional jihatdan sog'lom shaxs bo'lib voyaga yetadi. Shu sababli, ushbu maqolada oiladagi psixologik muammolar va ularning yechimlari tahlil qilinadi.

ASOSIY QISM

Oila muhitida bolaning psixologik rivojlanishiga ta'sir qiluvchi bir necha omillar bor shulardan asosiysi quyidagilardan iborat: emotsional qo'llab-quvvatlash, ota-onalarning namunali xulqi, ijtimoiy munosabatlar va sog'lom tarbiya uslublaridir.

Ushbu asosiy omillar farzandning o'zini anglashi, o'ziga bo'lgan bahosi, jamiyatga nisbatan munosabati va bolaning stressga qarshi turish salohiyatini belgilaydi. Er va xotin o'rtasidagi tortishuvlar farzandlar oldida bo'lmasligi lozim. Aks xolda ota-onaning baqirchaqiri farzand ruhiyatiga qattiq ta'sir qiladi. Bolaning ko'z o'ngida janjallashish, bu boladagi xotirjamlik tuyg'usini yemiradi, bolada qo'rquv, adovat va asabiylikni keltirib chiqaradi. Bolaning ruhiyatini oiladagi shaxslar yoki ko'taradi yoki buning aksi. Oila bolalar psixologik rivojlanishining birlamchi va eng muhim ijtimoiy muhitidir.

Inson tug'ilgan paytdan boshlab o'zining ilk hissiy tajribalarini, muloqot ko'nikmalarini, kognitiv va ijtimoiy xulq-atvor modellarini aynan oilada shakllantiradi. Zamonaviy psixologiya bolalar rivojining barcha bosqichlarida oila omilining hal qiluvchi ahamiyatga egaligini ta'kidlaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ota-onaning e'tibori, mehr-muhabbati, tarbiya uslubi, oilaviy muhitning barqarorligi bolada shaxsiy barqarorlik, emotsional xavfsizlik va ijtimoiy moslashuvning shakllanishida asosiy rol o'ynaydi.

Bola psixik rivojlanishining ilk davrlarida emotsional aloqa, ayniqsa, onaga bog'lanishning sifati muhim ahamiyat kasb etadi. Bowlby tomonidan ishlab chiqilgan Bog'lanish nazariyasiga ko'ra, barqaror va ishonchli bog'lanish modeli bolada o'ziga ishonch, tashqi dunyoni xavfsiz qabul qilish va sog'lom ijtimoiy aloqalar o'rnatishga asos yaratadi. Amerikalik psixolog, Ainworth fikriga ko'ra, aksincha beqaror, sovuq yoki shafqatsiz oilaviy muhit bolada xavotir, ishonchsizlik, tajovuzkorlik va ijtimoiy chekinish kabi xulq-atvor muammolarini keltirib chiqarishi mumkin.

Bolalarning kognitiv rivojlanishi ham oiladagi muloqot sifati bilan chambarchas bog'liq. Ota-onaning bola bilan qilgan suhbatlarining mazmuni, savol-javoblar, kitob o'qib berish, birgalikdagi o'yinlar uning nutq boyligi, tafakkuri va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Vygotskiyning "Proksimal rivojlanish zonasi" nazariyasiga ko'ra, bola kattalar rahbarligida o'ziga mustaqil holda qilolmaydigan vazifalarni bajarib, intellektual rivojlanishning yuqori bosqichlariga ko'tariladi. Demak, oilaviy qo'llab-quvvatlovning sifati bolaning o'qishdagi muvaffaqiyati va umumiy intellektual salohiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Oilada qo'llaniladigan tarbiya uslubi bolaning shaxs sifatida shakllanishida alohida ahamiyatga ega. Baumrind tasnifiga ko'ra, ota-onalarning avtoritativ (mehribon va talabchan), avtoritar (qattiq nazoratli), ruxsatchi (cheklovi past), va befarq uslublari mavjud. Tadqiqotlar avtoritativ uslub qo'llanilgan oilalarda tarbiyalangan bolalar ko'proq o'ziga ishonchli, ijtimoiy moslashgan, akademik muvaffaqiyati yuqori bo'lishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, Baumrid bir maktabda bir sinfda o'qiydigan avtoritar va avtoritativ munosabatda bo'lgan ota-onalar bolalarini tajriba o'tkazib, solishtiradi va natija shuni ko'rsatadiki, avtoritativ tarbiya muhiti (ya'ni ota-onasi farzandi bilan do'stona munosabatda bo'lgan, vazifalarni birga tayyorlab, bola fikrlarini inobatga olgan, bola zimmasiga mustaqil fikrlashi uchun mas'uliyat yuklagan) bolada:

- ichki motivatsiyani oshiradi;
- o'ziga ishonchni mustahkamlaydi;
- ijtimoiy kompetensiyani shakllantiradi.

Shu sababli bola sinfda faolligi, savollarga javob berishga urinishi va yangilikni o'rganishga ochiqqligi bilan ajralib turadi. U ko'pincha guruh ishlarida liderlik qiladi, do'stlari bilan konstruktiv muloqot qila oladi va o'qituvchilar uni intizomli, lekin erkin fikrlaydigan bola sifatida tavsiflaydi.

Ushbu tajribadan ko'rinib turibdiki, oiladagi psixologik iqlim, xususan, ota-onalar o'rtasidagi munosabatlarning barqarorligi ham bolaning ruhiy salomatligiga bevosita ta'sir qiladi. Ko'p mojaroli, ziddiyatli, sovuq muhit bolalarda xavotir buzilishlari, depressiv holatlar, tajovuzkorlik kabi muammolarni yuzaga keltirishi mumkin. Aksincha, mehrga boy, ijobiy muloqot ustuvor bo'lgan oilalarda bolalar o'z his-tuyg'ularini to'g'ri boshqarishni, konstruktiv muloqot qilishni va ijtimoiy rollarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishni o'rganadilar.

Zamonaviy psixologik izlanishlar oilani bolaning ruhiy va ijtimoiy rivojlanishida hal qiluvchi bosh omil sifatida ko'rsatadi. Avvalo, bola va parvarishchi o'rtasida shakllanadigan xavfsiz emotsional bog'lanish keyinchalik uning emotsional barqarorligi, o'zini boshqara olish qobiliyati va ijtimoiy kompetensiyalarining asosini yaratadi. Shuningdek, ota-onalarning tarbiya uslubi bolaning shaxsiy rivojlanish bag'rini belgilovchi muhim faktor bo'lib, ayniqsa, avtoritativ (mehrli, ammo talabchan) tarbiya uslubi yuqori o'ziga ishonch, ijobiy ijtimoiy xulq va yaxshi o'quv ko'rsatkichlari bilan bog'liq. Aksincha, oiladagi doimiy mojarolar, psixologik beqarorlik va befarqlik bolalarda xavotir, depressiv holatlar, agressiya va moslashuv qiyinchiliklariga olib kelishi mumkin. Oilaning bolaning rivojlanishiga ko'rsatadigan ta'siri faqat bevosita emas, balki bilvosita ham yuz beradi: ota-onaning ruhiy salomatligi, oilaviy kommunikatsiya sifati va ijtimoiy-iqtisodiy resurslar ushbu ta'sirning mediator yoki moderator omillari sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois, bolalarning sog'lom rivojlanishini ta'minlashda oilaviy muhitning barqarorligi, ota-onalarning psixologik madaniyati va emotsional qo'llab-quvvatlov tizimini mustahkamlash eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Shuningdek, zamonaviy tadqiqotlar oilaning iqtisodiy, madaniy va ma'rifiy darajasi ham bolaning rivojlanish ko'rsatkichlari bilan chambarchas bog'liqligini ta'kidlaydi. Ota-onaning ta'lim darajasi yuqori bo'lgan oilalarda bolalarning intellektual rivojlanishi, so'z boyligi, o'qishga bo'lgan qiziqishi yuqoriroq bo'ladi. Bu esa oilaning nafaqat psixologik, balki ijtimoiy-madaniy resurs sifatida ham bolaga ta'sir ko'rsatishini anglatadi.

XULOSA

Xulosa tariqasida aytish mumkinki, oila bolaning psixik rivojlanishida asosiy va almashtirilmaydigan ijtimoiy tizim sifatida namoyon bo'ladi. Psixologik jihatdan sog'lom oilaviy muhit, yetarli darajadagi mehr-muhabbat, emotsional qo'llab-quvvatlov, konstruktiv tarbiya strategiyalari, sifatli kommunikatsiya va barqaror psixologik iqlim bolada shaxs sifatida yetuklikning negizini shakllantiradi.

Yuqoridagi fikrlar shuni anglatadiki, bolaning psixologik rivojlanishining dastlabki determinatsiyasi bevosita oilada shakllanadi. Oiladagi emotsional qo'llab-quvvatlov, barqaror psixologik atmosfera, ota-onalarning o'zaro hurmati hamda samarali muloqot mexanizmlari bolada ijobiy shaxsiy sifatning rivojlanishiga muhim zamin yaratadi. Mehrga boy, xavfsiz va iliq oilaviy muhitda voyaga yetgan bolalarda o'ziga ishonch,

emotsional barqarorlik, ijtimoiy faollik va fikrni erkin ifoda etish kabi psixologik kompetensiyalar shakllanadi.

Aksincha, mojaroli, emotsional befarqlik hukm surgan yoki psixologik sovuq munosabatlar ustuvor bo'lgan oilalarda voyaga yetayotgan bolalarda xavotir, ishonchsizlik, tajovuzkorlik, emotsional disbalans va ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar kuzatilishi mumkin. Shu bois zamonaviy oilalarda tarbiya yondashuvlarini takomillashtirish, ota-onalarning psixologik madaniyatini oshirish, samarali kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish hamda bolaga izchil emotsional yordam ko'rsatish dolzarb vazifalar hisoblanadi.

Umuman olganda, oila bolaning nafaqat birlamchi sotsializatsiya manbai, balki uning ruhiy salomatligi, ijtimoiy moslashuvi va kelgusidagi shaxsiy hamda ijtimoiy muvaffaqiyatining asosiy psixologik omilidir. Shu sababli har bir oilada farzandning psixologik rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi sog'lom, barqaror va mehrga asoslangan psixologik muhitni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Rustamova, G.X. Oilaning tarixiy rivojlanishi va bola tarbiyasidagi ijtimoiy-psixologik o'rni. – Toshkent, 2025.
2. G'ulomova, Z. X. O'zbek oilalarida ota-onalar va farzandlar o'zaro munosabatlarining psixologik xususiyatlari. – Toshkent, 2023.
3. Ainsworth, M. D. S. Infant-mother attachment. - American Psychologist, 1979.
4. Baumrind, D. Parenting styles and adolescent development. – New York & London, 1991.
5. Bowlby, J. A Secure Base: Parent-Child Attachment and Healthy Human Development. NY, – 1988.